

AVIATSIYA TERMINLARINING XUSUSIYATLARI

Xusanova Xusnora Baxtiyor qizi

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek
tili va adabiyoti universiteti 4- bosqich talabasi
elmiraanvarova639@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy aviatsiya texnologiyalarining tez sur'atlarda taraqqiy etishi yangi terminlar, atamalar va qisqartmalarning doimiy ravishda paydo bo'lib kelishi haqida o'rganiladi. Bu terminlarni to'g'ri tushunish va bir xil tarzda qo'llash aviatsiya xavfsizligini, shuningdek, texnik hujjatlarni tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: aviatsiya, atamalar, qisqartmalar, ko'tarilish kuchi, parvoz, termin

Aviatsiya - bu texnik, ilmiy va xalqaro muloqot sohalarini birlashtiruvchi murakkab tizimdir. Ushbu sohada ishlatiladigan terminlar maxsus texnik ma'nolarga ega bo'lib, ular parvoz, samolyot konstruksiyasi, navigatsiya, aerodrome, havo harakati va xavfsizlik bilan bog'liq tushunchalarni ifodalaydi. Aviatsiya terminologiyasi aniq, qisqa va xalqaro miqyosda bir xil ma'noda tushuniladigan bo'lishi kerak.

1. Aviatsiya terminlarining umumiy xususiyatlari

a) Aniqlik va bir ma'nolilik

Aviatsiya terminlari boshqa soha terminlariga qaraganda aniq va bir ma'noli bo'lishi shart. Chunki noaniqlik yoki xato tushunish parvoz xavfsizligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan:

Altitude - "balandlik" (aniq fizik tushuncha sifatida),

Heading - "yo'nalish" (samolyotning harakat burchagi).

Bu terminlarning har biri qat'iy belgilangan ma'noga ega bo'lib, ularni sinonim shaklda qo'llash mumkin emas.

"Термины авиации имеют строгую однозначность и не допускают синонимии, поскольку любая ошибка может привести к недопониманию в управлении полётами."(3)

Tarjimasi: "Aviatsiya terminlari qat'iy birma'nolikka ega va sinonimiyaga yo'l qo'ymaydi, chunki har qanday xato parvoz boshqaruvida tushunmovchilikka olib kelishi mumkin".(3)

b) Qisqartmalar ko'pligi

Aviatsiya tili qisqartmalarga boy. Buning sababi — radioaloqa jarayonida vaqtni tejash va tezkor muloqotni ta'minlashdir. Masalan:

ATC - Air Traffic Control (Havo harakati boshqaruvi),

VFR - Visual Flight Rules (Ko'rish asosida parvoz qoidalar),

ETA - Estimated Time of Arrival (Taxminiy yetib kelish vaqti).

Bunday qisqartmalar xalqaro darajada tan olingan va tarjimasiz qo'llaniladi.

c) Xalqaro standartlashgan terminologiya

Aviatsiya terminlari asosan ingliz tilida shakllangan bo'lib, ularni xalqaro tashkilotlar — ICAO (International Civil Aviation Organization) va IATA (International Air Transport Association) tomonidan tasdiqlangan standartlarga muvofiq ishlatish talab etiladi. Bu standartlashuv xalqaro parvozlarda terminlarning bir xil talqin qilinishini ta'minlaydi.

d) Texnik va ilmiy mazmun

Aviatsiya terminlari ko'pincha texnik yoki ilmiy asosga ega bo'ladi. Ular aerodinamika, mexanika, elektronika, meteorologiya va kommunikatsiya bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan:

Thrust – “turtki kuchi”,

Lift – “ko'taruvchi kuch”.

Bu terminlar fizik jarayonlarni ifodalab, aniq o'lchov va parametrlarga ega.

e) Barqarorlik va o'zgarmaslik

Aviatsiya terminlari tez-tez o'zgarmaydi, chunki ular standart hujjatlar, texnik reglamentlar va xalqaro qoida asosida tasdiqlangan. Har qanday yangi termin paydo bo'lsa, u ilgari mavjud bo'lgan tushunchalar tizimiga kiritilib, sinovdan o'tkaziladi.

2. Aviatsiya terminlarining tuzilish xususiyatlari

a) Bir so'zli terminlar:

Ko'pincha texnik obyekt yoki harakatni bildiradi.

Masalan: airframe (havo korpusi), rudder (vertikal boshqaruv qanoti), engine (dvigatel).

“Aviatsiya terminologiyasi, funksional va aniq maqsadli tildan iborat bo'lib, undagi har bir so'z yoki ibora muayyan texnik yoki professional maqsadni ifodalaydi”(4)

b) So'z birikmasidan iborat terminlar:

Ko'p hollarda aniqlik kiritish uchun ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topadi.

Masalan: flight control system (parvoz boshqaruv tizimi), runway lighting (yo'lak yoritgichi), ground handling (yerda xizmat ko'rsatish).

“Aviatsiya sohasidagi terminologiya – zamonaviy, funksional va maqsadga yo'naltirilgan til bilimi”(5)

c) Qisqartma va kod shaklidagi terminlar:

Masalan: ILS (Instrument Landing System — asboblarni yordamida qo'nish tizimi), NOTAM (Notice to Airmen — uchuvchilarga xabar).

3. Aviatsiya terminlarini tarjima qilishdagi xususiyatlar

Aviatsiya terminlarini boshqa tillarga, jumladan o'zbek tiliga tarjima qilishda quyidagilar e'tiborga olinadi:

- Terminning aniq ekvivalenti bo'lishi zarur;

Ba'zi terminlar tarjima qilinmaydi, balki asl shaklda ishlatiladi (masalan, cockpit, runway);

- Qisqartmalarni tarjima qilishda xalqaro shakl saqlanadi;

Tarjima jarayonida ma'noni yo'qotmaslik eng muhim tamoyil hisoblanadi.

4. Amaliy qo'llanishdagi terminlar misollar

Airspeed - Havo tezligi Samolyotning havo oqimiga nisbatan tezligi

Taxiway - Yo'lakcha Samolyot uchish-qo'nish yo'lagiga chiqadigan yo'l

Cockpit - Boshqaruv kabinasi Uchuvchi joylashgan qism

Altimeter - Balandlik o'lchagich Balandlikni aniqlovchi asbob

Mayday - Favqulodda chaqiriq Xalqaro signal (yordam so'rash uchun)

Xulosa qilib aytganda, aviatsiya terminologiyasi aniq, qisqa, xalqaro standartlarga mos va texnik ilmiy asosga ega bo'lishi lozim. Bu parvoz va samolyotdagi yo'lovchilarning xavfsizligini to'liq ta'minlashga yordam beradi. Tarjima jarayonida esa aniq ekvivalent va xalqaro standartlarga mos ravishda terminlar tanlash lozimdir. Bunga o'zgartirish kiritish qiyin jarayon bo'lib, bu texnik va ma'no jihatdan to'g'ri tuzilgan bo'lishi kerak va aviatsiya xodimlari uchun esda qolarli, o'z sohasiga mos bo'lishi nazarda tutiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulvohidova, N. S. Ingliz tilida aviatsiyaga oid terminlarning leksik xususiyatlari. Yevroosiyo akademik tadqiqotlar jurnali, 2022.
2. Abdulvohidova N. S., Qodirova M. T. Aviatsiyaga oid terminlarning inglizcha-o'zbekcha lug'ati – T: 2022.
3. Borodina, E. V. Авиационный английский язык: Терминология и практика перевода. Москва: Наука, 2018.
4. Ra'no Ergashova. International scientific-methodological electronic journal "Foreign Languages in Uzbekistan", 2023
5. Shonazarov A'zamjon. Phoenix Publication ilmiy maqola platformasi, 2025.